

BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK TURLARI VA UNING AHAMIYATI

Mirzamahmudova Shohruzabonu Mirzohid qizi

FarDU talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15287113>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonlik holatlari, ularning asosiy turlari hamda har bir turining bolalar hayotiga ta’siri yoritiladi. Maqolada jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy zo‘ravonlik shakllari tahlil qilinib, ularning farzandlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishidagi xavfli oqibatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va uni bartaraf etish yo‘llari ham muhokama qilinadi. Mazkur mavzuni o‘rganish orqali bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning sog‘lom va xavfsiz muhitda voyaga yetishiga ko‘maklashish muhimligi asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: Bola, zoʻravonlik, jinsiy zoʻravonlik, jismoniy zoʻravonlik, kamsitilish, qartovsizlik.

Kirish. Bolalar – jamiyatning eng nozik, e’tiborga muhtoj va himoyaga muhtoj qatlamidir.

Afsuski, zamonaviy jamiyatda ular turli shakldagi zo‘ravonliklarga duch kelmoqda. Bu holatlar nafaqat jismoniy jarohatlar, balki chuqur psixologik travmalar, o‘ziga ishonchsizlik va kelajakda salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik — ularning huquqlari buzilishi, sha’ni va qadr-qimmatining toptalishi demakdir. Mazkur maqolada zo‘ravonlikning asosiy turlari — jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy shakllari tahlil qilinadi hamda bu holatlarning bolalar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, bunday holatlarni aniqlash va oldini olish masalalariga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Asosiy qism. Zo‘ravonlik – bu bolaning hayotiga, sog‘lig‘iga, ruhiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan har qanday harakat yoki befarqlikdir. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik yoki shafqatsizlik bu bola yoki bolalar guruhiga ota-ona yoki tarbiyachi tomonidan jismoniy, jinsiy va/yoki ruhiy zo‘ravonlik qilinishi yoki, umuman, beparvolikdir. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik ota-ona yoki tarbiyachining bolaga haqiqiy yoki potensial zarar yetkazishiga olib keladigan har qanday xatti-harakat yoki harakatsizlikni o‘z ichiga olishi mumkin va bu holat odatda bolaning uyida yoki bola vaqt o‘tkazadigan tashkilotlar, maktablar yoki jamoalar joylarida sodir bo‘ladi.¹

Zo'ravonlik, shu jumladan bolalarga nisbatan, ko'plab dinlarda, masalan, Islom, Xristianlik va Yahudiylikda qoralangan.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Bolalarga_nisbatan_zo%CA%BBraonlik

Bu dinlar mehr-muhabbat, hurmat va yaxshilikni targ'ib qiladi. Islomda bolalar himoya qilinishi, Xristianlikda esa bolalar bilan do'stona munosabatda bo'lish kerakligi ta'kidlanadi. Barcha dinlarda zo'ravonlik salbiy hisoblanadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bolalarga nisbatan yomon zo'ravonlik holatlarini to'rt guruhga ajratdi: jismoniy zo'ravonlik; jinsiy zo'ravonlik; hissiy (yoki psixologik) zo'ravonlik; va e'tiborsizlik.

1 Bolalarga nisbatan jismoniy zo'ravonlik - bu bola tana a'zolariga ataylab tan jarohati yetkazish yoki og'riq berish orqali amalga oshiriladigan harakatlardir. Bunga quyidagilar kiradi: Urish, tepish, turtish, kaltaklash yoki boshqa buyumlar bilan urish, qo'l bilan yoki boshqa usullar bilan chimchilash, mushtlash, bolani issiq, sovuq, yoki boshqa zararli sharoitlarda qasddan ushlab turish, tanaga zarar yetkazadigan tarzda jazolash kabilarni o'z ichiga oladi. Bunday zo'ravonlik bolada nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlikka ham jiddiy zarar yetkazadi. Bu bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini kamaytiradi, xavotir, qo'rquv, tushkunlikka olib keladi, va uzoq muddatli psixologik travmalarga sabab bo'lishi mumkin.

2. Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik — bu bolaga roziligi yoki tushunishi bo'lmagan holda, jinsiy aloqalar yoki jinsiy harakatlarni amalga oshirishdir. Bunday zo'ravonlikning quyidagi shakllari mavjud: Jinsiy aloqada bo'lish, jinsiy zo'ravonlikka undash, jinsiy harakatlar bilan tahdid qilish yoki qo'rqitish kabilarni o'z ichiga oladi. Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlikka ham jiddiy zarar yetkazadi. Bu bola uchun ruhiy travmalar, ishonchni yo'qotish, xavotir, tushkunlik, psixologik muammolar va boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi.

3. Bolalarga nisbatan hissiy yoki psixologik zo'ravonlik — bu bolaning ruhiy va emotsional holatiga zarar yetkazuvchi, uning o'zini past baholashiga, xavotir va stressga olib keladigan harakatlar yoki muhit. Bu turdagi zo'ravonlik jismoniy zarardan ko'ra ko'proq ko'rinmas bo'lishi mumkin, lekin uning oqibatlari ham shunchalik chuqur va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Hissiy zo'ravonlikning turli shakllari mavjud, ular: Doimiy kamsitish va masxara qilish, ruhiy bosim o'tkazish kabilarni o'z ichiga oladi.

4. E'tiborsizlik ya'ni bolaning qarovsizligi — ota-onaning yoki bola uchun mas'ul bo'lgan boshqa shaxsning bolaning sog'lig'i, xavfsizligi yoki farovonligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan darajada oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, tibbiy yordam bilan ta'minlamasligi, nazorat

qilmasligi. E'tiborsizlik, shuningdek, bola bilan bir muhitda turgan odamlarning e'tiborsizligi va bolaning omon qolishi uchun tegishli va yetarli chora-tadbirlarni qo'llamasligidir.²

Beparvo qoldirilgan bolalar jismoniy va psixosotsial rivojlanishda kechikishlarni boshdan kechirishi mumkin. E'tiborsizlik qurboni bo'lgan bolalar hayotining dastlabki bosqichlarida zarur bo'lgan bog'liqlik hissigacha to'yinmaganligi sababli hayotlar davomida ham ishqiy yoki do'stlik kabi munosabatlarni shakllantirish va davom ettirishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik nafaqat jismoniy va ruhiy zarar yetkazish, balki ularning kelajakdagi ijtimoiy va psixologik salomatligiga ham uzoq muddatli ta'sir qiladi. Zo'ravonlik turli shakllarda mavjud bo'lib, har biri bolalarning hayotini buzishi va ularni xavf ostiga qo'yishi mumkin. Shu sababli, bolalar huquqlarini himoya qilish, zo'ravonlikni oldini olish va ularning farovonligini ta'minlash uchun samarali qonuniy, psixologik va ijtimoiy choralar zarur. Jamiyatning barcha qatlamlari, shu jumladan davlat va oila, bolalar uchun xavfsiz va sog'lom muhit yaratish borasida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishlari kerak. Faqat shu tarzda bolalarga nisbatan zo'ravonlikni kamaytirish va ularni baxtli kelajakka yo'naltirish mumkin bo'ladi.

Xulosa. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning turli shakllari, jumladan jismoniy, ruhiy, jinsiy va e'tiborsizlik, ularning psixologik va fizikal rivojlanishiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu turdagi zo'ravonlik bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini, ijtimoiy moslashuvini, va umumiy farovonligini jiddiy tarzda cheklaydi. Shuningdek, bolalar o'z huquqlarini himoya qilishda yordam beradigan tizimli va kompleks yondashuvlarga muhtojdir. Jamiyat, oila va davlat tomonidan amalga oshiriladigan qonuniy chora-tadbirlar, tarbiyaviy va ma'rifiy ishlanmalar bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Har bir bola xavfsiz va sog'lom muhitda o'sishi uchun ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar yangilanib borishi lozim. Zo'ravonlikning oldini olish uchun huquqiy, ma'naviy va pedagogik yondashuvlarning uyg'unligi bolalar huquqlarini ta'minlashning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L. Kim, D. Isayeva, S.X. Tadjiyeva, D.G. Sobirova – Bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti kursi boyicha xrestomatiya, Toshkent 2012.
2. X. Vohidov – Din va jamiyat. Oila mustahkamligi yo'lida, Toshkent Islom Universiteti nashriyoti 2021.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bolalarga_nisbatan_zo%CA%BBravonlik.

² L. Kim, D. Isayeva, S.X. Tadjiyeva, D.G. Sobirova – Bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti kursi boyicha xrestomatiya, Toshkent 2012.